



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 4 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI .....	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI .....	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR .....	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) .....	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI .....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy) .....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI .....	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA) .....	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI .....	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR .....	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI .....	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI .....	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....	93-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) .....	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI .....	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....	165-169

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI .....	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI .....	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI .....	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT .....	224-231
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI .....	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA .....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI .....	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION .....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS .....	282-285

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION .....	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI" .....	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI .....	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI .....	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI .....	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR .....	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI .....	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI .....	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR" .....	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI .....	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI .....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....	458-463
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR .....	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI .....	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI .....	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....	497-501

**Received:** 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF CRIMES RELATED TO ILLEGAL TRAFFICKING OF STRONG AND NEW TYPES OF DRUGS****Khatamov Tulkin Tozhiddinovich**Current reserve personnel of the Ministry of Internal Affairs,  
lieutenant colonel

**Abstract.** The article analyzes new types of strong-acting and narcotic drugs, narcotic drugs and psychotropic substances, their analogues, methods of their study and the opinions of scientists on this issue, gaps in current national legislation and the experience of foreign countries in this regard, as well as theoretical and legal aspects of crimes related to the illegal trafficking of strong-acting and narcotic drugs.

**Keywords:** potent substances, psychotropic substances, drugs, analogues, narcotic, contraband, substance abuse, drug addiction.

**KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHЛИI****Xatamov To'lqin Tojiddinovich**Ichki ishlar vazirligi kadrlarining amaldagi  
zaxirasi, podpolkovnik

**Annotatsiya.** Maqolada kuchli ta'sir qiluvchi va giyohvandlik vositalarini yangi turlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, ularning analoglari, ularni o'rganish usullari va bu boradagi olimlar fikri, amaldagi milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar hamda bu borada xorijiy davlatlar tajribalari, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi hamda giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning nazariy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, psixotrop moddalar, giyohvandlik vositalar, analoglar, preparat, kontrabanda, zaharvandlik, giyohvandlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N51>

**Kirish.** Hozirgi kunda respublikamizda giyohvandlikka qarshi kurash tobora dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Chunki giyohvandlik mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ildizlariga bolta uradi, millatning genofondiga jiddiy putur yetkazadi. Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, uning hayotga endi kirib kelayotgan a'zolarini o'z domiga tortishga ularni jismoniy, moddiy qaram qilishga intiladi.

Ma'lumki, Afg'onistonda ishlab chiqarilgan geroinning asosiy qismi Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasidan yashirinch, tranzit yuk shaklida Yevropaning boshqa davlatlariga kontrabanda usulida o'tkazilayotganligi, uning ma'lum qismi esa tranzit davlatlar hududida sotish orqali giyohvandlar ehtiyojini qondirish uchun mazkur hududda qoldirilishi, ayniqsa, tashvishli holdir.

Mazkur muammoni oldini olish va bartaraf etish maqsadida O'zbekistonda ham kompleks chora-tadbirlar belgilangan va amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-son Farmoni qabul qilingan.

"So'ngi yillarda yangi turdag'i sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqalayotganligi mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda" [5, B. 2].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, respublikada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste'mol qilishga nisbatan immunitetni shakllantirish orqali genofondga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish, giyohvandlikka chalingan bemorlarni jahon tajribasi asosida tibbiy davolanish tizimini tashkil etish uchun "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan milliy Strategiya" tasdiqlandi va uning ijrosi bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

**Metodologiya.** Ushbu maqolani tayyorlashda IMRAD usulidan foydalanildi. Bunda, tegishli sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikri o'rganildi, muhokama qilindi va taqqoslandi. Shuningdek, tahlilda muallifning subyektiv fikrlari ham katta o'rinn egallaydi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, psixofaol moddalar turlari doimiy ravishda noqonuniy laboratoriyalarda sintez qilinmoqda. Afsuski, vakolatli organlar bunday moddalarining tarkibini aniqlash, xavfini tezda tekshirish, ularni nazorat qilinadigan moddalar ro'yxatiga qo'sha olish imkoniga ega emas.

Masalan, Brexpiprazol (Rexulti) (*shizofreniyani davolashda va depressiyani davolashda qo'shimcha sifatida ishlataladigan antipsikotik dori*), Kariprazin (Vraylor) (*shizofreniya va bipolyar buzilishlarni davolash uchun ishlataladi*), Esketamin (Spravato) (*Davolashga chidamli depressiyani davolash uchun ishlataladigan burun spreyi*), Lumateperone (Kaplyusta) (*shizofreniyani davolash uchun yangi antipsikotik*), Suvorexant (Belsomra) [9, B. 1] (*oreksin retseptorlariga ta'sir qiluvchi uyqusizlikni davolash uchun ishlataladigan dori*) kabi psixotroplar qonunchiligidizda hali ta'qilanganmagan.

Har bir modda turini aniqlash, tarkibini o'rganish va ta'qilangan moddalar ro'yxatiga qo'shish uzoq vaqt talab qilishini hisobga olib, ko'plab davlatlar milliy qonunchiligiga (*Jinoyat kodeksi*) giyohvandlik vositalari **analoglari** degan tushunchani kiritishmoqda. Ya'ni, bunga ko'ra, giyohvandlik vositalarining analoglari bu kimyoviy tuzilishi va xossalariiga ko'ra giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalardir.

Giyohvandlik vositalarning analoglari tushunchasining huquqiy jihatlarini, ularning zaruriy belgilarini ajratgan holda o'rganish alohida ahamiyatga ega. A.V. Fyodorovning fikricha, analoglarning quyidagi yettita zaruriy belgilarini ajratiladi: 1. Kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy

moddalar. 2. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari ro'yxatiga kiritilmagan nazoratga olinadigan moddalar. 3. Nazoratga olinadigan, ro'yxatiga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalar. 4. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xhash moddalar. 5. Xossalariiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xhash moddalar. 6. Muomalasi ta'qilangan moddalar. 7. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari sifatida o'rnatilgan tartibda belgilanadigan moddalar [10, B. 3].

Fikrimizcha olimning bu yondashuvi to'g'ri bo'lib, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning analoglarini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonunchilikda ishlatiladigan boshqa bir qator o'xhash tushunchalaridan farqlash hamda ularni analoglar maqomida mavjud bo'lishining vaqt oralig'ini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini to'laqonli bajarishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'z ortidan boshqa qora illatlarni ham yetaklab yuradigan giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda yurtimizda mustahkam huquqiy asoslar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida giyohvandlik bilan bog'liq barcha munosabatlarni qamrab oluvchi huquqiy normalar bilan to'ldirilgan. Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz 1995-yil fevral oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi "Narkotik moddalar to'g'risida"gi Yagona Konvensiyasi, 1971-yildagi "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi hamda 1988-yildagi "Giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyalariga a'zo bo'lган. Bundan tashqari, 1999-yilda O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga zid ravishda muomalada bo'lishning har qanday ko'rinishlariga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan.

Mazkur qonun talablaridan kelib chiqib, giyohvandlik bilan bog'liq munosabatlarning qonuniy mazmun va mohiyatlari yoritib berildi. Masalan, **giyohvandlik (narkotik) vositalari** — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lган preparatlar va o'simliklar.

**Psixotrop moddalar** — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

**Prekursorlar** — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalilanadigan moddalar;

**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari** — kimyoviy tuzilishi va xossalariiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xhash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

**Preparat** — moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lган aralashmasi;

**Giyohvandlik (narkomaniya)** — giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

**Zaharvandlik (taksikomaniya)** — psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'limgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik.

**Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xiLOF ravishda muomala qilish deganda**, ularni O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan shart va tartibni buzgan holda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish tushuniladi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, Ma'muriy va jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar bilan qonunga xiLOF ravishda muomala qilganda kelib chiqadi. Mazkur qarorga Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-oktyabrdagi 878-sonli qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu qarorda respublikamiz hududida muomalasi ta'qilangan giyohvandlik vositalari, respublikamiz hududida muomalasi cheklangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlarning 3 xil darajadagi miqdorlari, ya'ni *ko'p bo'limgan, ozginadan ko'p va ko'p miqdorlari* belgilangan [6, B. 4-7]. Shunga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan giyohvandlik vositalari va prekursorlar bilan bir qatorda giyohvandlik vositalarining analoglari bilan bog'liq jinoyatlar ham ta'qib qilinadi.

Jinoyat Kodeksining XIX bobida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xiLOF ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar belgilangan bo'lib, 270-276-moddalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, **270-modda** (*Ta'qilangan ekinlarni yetishtirish*), **271-modda** (*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xiLOF ravishda egallash*), **273-modda** (*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xiLOF ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xiLOF ravishda o'tkazish*), **274-modda** (*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish*), **275-modda** (*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish*), **276-modda** (*Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xiLOF ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar*).

Ushbu jinoyatlar subyektiv tomondan qasddan (*JKning 275-moddasidagi jinoyat ehtiyoitsizlik orqasida ham sodir etilishi mumkin*) sodir etilib, jinoyat sodir etilgunga qadar 16 (*JKning 271-moddasidagi jinoyat subyekti 14*) yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs mazkur jinoyatning subyekti sifatida tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xiLOF ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2017-yil 28-apreldagi 12-sod qarori qabul qilingan bo'lib, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xiLOF ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlarini ko'rishda qonunlar to'g'iri va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash, mazkur toifa ishlar bo'yicha odil sudlov sifatini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Xususan, bu boradagi qonun normalari yuzasidan aniq va bir xil sud amaliyotini qo'llash bo'yicha tushuntirishlar berilgan. Masalan, Jinoyat Kodeksining 273-moddasi [биринчи қисмида](#) nazarda utilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, ularni turlicha usulda haq evaziga yoki tekinga (sotish, hadya etish, almashtirish, qarzi evaziga yoki qarz sifatida va h.k.) boshqa shaxsga berish tushunilishi lozim. Bunda vositalar, moddalar, o'simliklar shaxs tomonidan bevosita yoki boshqa (masalan, ular saqlanadigan joy haqida xabar berish, shartlashilgan joyga qo'yib ketish) usulda amalga oshirilishi mumkin.

Bir shaxs tomonidan boshqasiga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni inyeksiya (ukol) qilish, agar mazkur vosita yoki modda iste'molchining o'ziga tegishli bo'lsa va inyeksiya uning iltimosiga ko'ra qilingan bo'lsa, qonunga xilof ravishda o'tkazish deb baholanishi mumkin emas.

Shaxsning giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun JK [273-моддасининг](#) tegishli qismi bilan javobgarlik ularning miqdori bilan bog'liq holda kelib chiqadi.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni sotish usulida ko'p miqdorda o'tkazish ularni o'tkazishning eng ijtimoiy xavfli ko'rinishi hisoblanishi tufayli, mazkur qilmish JK 273-moddasining [бешинчи қисми](#) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Mazkur vosita yoki moddalarni ko'p miqdorda boshqa barcha usullarda o'tkazish JK [273-моддасининг](#) boshqa tegishli qismi bilan javobgarlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Aybdor tomonidan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarning faqat bir qismi o'tkazilib, qolgan qismi keyinchalik surishtiruv yoki dastlabki tergov davomida aniqlansa, javobgarlik qonunga xilof ravishda o'tkazish va qonunga xilof ravishda saqlash uchun alohida-alohida (agar mazkur vosita va moddalarni o'tkazishga nisbatan qasd aniqlanmagan bo'lsa), ularning miqdoriga bog'liq ravishda kelib chiqadi[7, B. 4].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to'g'risida" 2019-yil 6-sentyabrdagi PQ-4438-son [карорига](#) muvofiq 2019-yil 27-sentyabrda Vazirlar Mahkamasining kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida"gi 818-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxati hamda jinoiy harakatni tasniflashda ko'p miqdor ko'rsatkichlari tasdiqlandi[8, B. 2].

Mazkur qarorda alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar \* bilan belgilanib, ular faqat giyohvandlik vositalari va/yoki psixotrop moddalarni saqlash va sotish faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan dorixonalar va ijtimoiy dorixonalar orqali ulgurji va chakana realizatsiya qilinishi (sotilishi) qayd qilingan.

Bundan tashqari, quyidagilar kuchli ta'sir qiluvchi moddalarga kirishi belgilangan:

a) ro'yxatda keltirilgan moddalarning mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha holatdagi tuzlari;

ro'yxatda keltirilgan moddalarning mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha holatdagi izomerlari;

ro'yxatda keltirilgan moddalarning oddiy va murakkab efirlari.

Bunday tuzlar, izomerlar va efirlar uchun jinoiy harakatni tasniflash uchun ko'p miqdor ko'rsatkichlari xuddi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarga qo'llaniladigan ko'rsatkichlarga mos ravishda belgilanadi.

b) tarkibida ushbu kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatida keltirilgan moddalardan birortasi mavjud bo'lgan barcha dori shakllari, aralashmalar va eritmalar, bunda dori shakli, aralashma va eritmalar uchun ko'p miqdor kuchli ta'sir qiluvchi moddaning ko'p miqdori kabi aniqlanadi, dori shakli, aralashmasi va eritma uchun eng ko'p miqdori ta'sir qiluvchi modda hisob-kitob qilinmasdan umumiy miqdordan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bo'yicha giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bo'yicha ham bir qator jinoiy javobgarliklar belgilangan. Jumladan Jinoyat kodeksining **186<sup>3</sup>, 246, 251, 251<sup>1</sup>, 251<sup>2</sup>**-moddalari bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun jinoiy ta'qib belgilangan.

**Xulosa.** Yuqoridagilarga asosan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Garchand, O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, nafaqat giyohvandlik vositalari analoglari, balki psixotrop moddalar analoglarining ham muomalasi ta'qiqlangan[4, B.2] bo'lsa-da, Jinoyat kodeksimizda faqatgina giyohvandlik vositalarning analoglari uchun javobgarlik nazarda tutilgan ko'rsatilgan bo'lib, psixotrop moddalarning analoglarining noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmay qolgan.

Bu borada xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini o'rganish natijasida MDH davlatlaridan Qozog'iston Respublikasi, Qирг'изистон Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus Respublikasi, Bolgariya va boshqa Yevropa davlatlarida psixotrop moddalarning analoglari uchun javobgarlik belgilanganligi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan psixotrop moddalarning analoglari uchun qonunchiligidan jinoiy ta'qib mavjud bo'lmas ekan, giyohvandlikka qarshi kurash uchun olib borilayotgan barcha sa'y-harakatlar o'zining yetarlicha ijobiy samarasini bermaydi.

*Fikrimizcha kelgusida amaldagi Jinoyat kodeksiga psixotrop moddalari va ularning analoglarini noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar bilan to'ldirish lozim deb hisoblaymiz.*

*Shuningdek, bu sohadagi jinoyatlarga yetarlicha qarshi kurash olib borish uchun sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish organlari va huquqiy tizimni ushbu o'zgarishlarga moslashishi va bunday jinoyatlarga qarshi kurashda zamonaviy vositalardan samarali foydalanishi muhim hisoblanadi.*

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi –Adolat.Toshkent-2024;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi–Adolat.Toshkent-2024;
3. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – T.: O'qituvchi, 2003;
4. 1999-yil 19-avgust. 813-I-son O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuning 5-moddasi 2-qismi;
5. 2024-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-son Farmoni;

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli qaroriga 4-7-ilovalar;
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2017-yil 28-apreldagi 12-son qarorining 21-bandi;
8. 2019-yil 27-sentyabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida"gi 818-sonli qarori;
9. <https://ichgcp.net/ru/clinical-trials-registry/nct02054702>;
10. Rasulev.A. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning predmeti haqida". Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>. Special Issue – 05 (2022) / ISSN 2181-1415;
11. П.С.Федюкович. "Актуальные проблемы квалификации преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ".  
диссертация. Толятி-2019:
12. Дубовская Е.Н. "Актуальные проблемы преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ"-Красноярск-2022.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).